



TO'RA SULAYMONNING "MUQADDAS QO'SHIQ" SHE'RI TAHLILI

O'rolova Munira Faxriddin qizi
Guliston davlat pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi
2-bosqich talabasi
"Mushoira" klubi a'zosi

Annotatsiya. Ushbu maqolada shoir To'ra Sulaymonning hayoti va ijodiy faoliyati qisqacha yoritiladi. Shuningdek, ushbu maqolada shoirning kitoblari, she'rlari va ulardagi asosiy g'oyalar ham qisqacha yoritib o'tiladi. Bundan tashqari ushbu maqolada shoirning eng mashhur she'rlaridan biri bo'lgan "Muqaddas qo'shiq" she'ri tahlili ham o'rin olgan. Ushbu she'rda aks etgan o'xshatishlar, tasviriy ifodalar tahlili ham o'rin olgan.

Kalit so'zlar: To'ra Sulaymon, shoir, Vatan, uslub, o'xshatma, muqaddas, muhabbat, Vatanimiz madhi, janr, lirik, she'r, band, jannatmakon yurt, musaffo, mehmondo'st, ezgu tilak, Mirzo Ulug'bek, tashbeh, mahurat, badiiy vosita.

Аннотация. В этой статье кратко освещается жизнь и творческая деятельность поэта Торы Соломон. Также в этой статье будут кратко освещены книги поэта, его стихи и основные идеи в них. Кроме того, в этой статье представлен анализ стихотворения "Священная песня", одного из самых известных стихотворений поэта. Аналогии, отраженные в этом стихотворении, также содержат анализ образных выражений.

Ключевые слова: Тора Сулейман, поэт, Родина, стиль, аналогия, священный, любовь, гимн нашей Родины, жанр, лирика, поэзия, группа, райская страна, чистый, гостеприимный, доброе пожелание, Мирза Улугбек, ташбех, махурат, художественный инструмент.

Annotation. This article briefly covers the life and creative work of the poet Torah Solomon. This article also briefly covers the poet's books, poems and the main ideas in them. In addition this article includes an analysis of the poem "Sacred Song", one of the poet's most famous poems. An analysis of the metaphors, pictorial expressions, is also included in this poem.

Keywords: Torah Solomon, poet, Homeland, style, metaphor, holy, love, praise of our motherland, genre, lyric, poetry, band, Paradise Land, pure, hospitable, noble wish, Mirzo Ulugbek, tashbeh, skill, artistic medium.

Kirish. O'zbekiston xalq shoiri To'ra Tulaymon 1934-yilning 15-fevralida Jizzax viloyatining Baxmal tumanida tavallud topgan. Yoshligidan she'riyatga, adabiyotga bo'lgan qiziqish uni shoir bo'lishga undadi. To'ra Sulaymon adabiyotga bo'lgan muhabbati kuchliligi



tufayli ToshDuning o'zbek filologiyasi yo'nalishiga o'qishga kirdi. O'qishni tugatib "Guliston", "Sirdaryo haqiqati" kabi gazetalarda xodim, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Sirdaryo viloyati bo'limida mas'ul kotib lavozimlarida faoliyat olib borgan¹. To'ra Sulaymon shoir sifatida juda samarali faoliyat olib borgan. Shoirning dastlabki she'rlar to'plami "Istar ko'ngil" nomi ostida 1962-yilda bosib chiqilib, she'riyat ixlosmandlariga taqdim etildi. Bu she'riy to'plam she'riyat shinavandalari tomonidan yaxshi kutib olindi. Shundan so'ng shoir muxlislariga "Qora soch" nomli dotonini taqdim etdi. Bu dostoni ham omma tomonidan iliq kutib olindi. Shundan so'ng yozuvchining "Hamqishloqlarim", "Jahongashta" nomli dostonlari, "Mening qora ko'zginam", "Alhazar", "Intizor" nomli kitoblari kitobxonlar qo'liga yetib keldi². To'ra Sulaymon xilma-xil janrlarda qalam tebratdi³. Shoirning sof lirik she'rlari, qasida va faxriyalari, manzumalaridan⁴ tashqari, xalq yo'lida bitilgan, o'z davrining dolzarb masalalariga bag'ishlangan, voqelikni qadimgi baxshilar nazari bilan ko'rib, o'xshatma yoki nazira shaklida yozilgan asarlari ham o'ziga xos xalqchilligi bilan ajralib turadi⁵. Har bir shoirning so'z qo'llash uslubi bo'lganidek, To'ra Sulaymonning ham hech kimnikiga o'xshamagan o'zgacha so'z qo'llash uslubi mavjud. To'ra Sulaymon she'rlarida so'z qo'llash, ayniqsa, sheva so'zlaridan mahorat bilan foydalanishi o'ziga xos uslubni yaratishda qo'l kelgan⁶. To'ra Sulaymonning she'rlari, asosan, vatan, millat, ona, tabiat go'zalligi mavzularida yozilgan. Shoirning barcha she'rlari zamirida chuqur falsafiy, axloqiy ma'no yashiringan. Shoir she'rlari zamirida Vatanga muhabbat, uning har bir qarich yerini ham ko'z qorachig'idek asrash, ota-onaga bo'lgan hurmat ma'nolari o'z aksini topgan. Albatta, bular insonni komillika yetaklaydi. Yuqorida aytib o'tganimdek, shoirning she'rlari turli mavzularda. Biri onalarga atalgan bo'lsa, biri tabiat va uning go'zalligi haqida, yana boshqa birlari esa vatan mavzularida yozilgan. Shoir To'ra Sulaymonning "Muqaddas qo'shiq" nomli she'rida ayanan vatan madhi tarannum etilgan. She'rni boshidan oxirigacha o'qir ekanmiz uning har bir misrasida vatanimiz madhi, uning bor go'zalligi chiroyli tarzda ifodalab berilganini ko'rishimiz mumkin. Quyida To'ra Sulaymonning "Muqaddas qo'shiq" she'ri bilan tanishamiz.

Assalom, ona yurt, tonglar o'lkasi,
Ta'rif-tavsifingning yo'q nihiyasi.
Senga bag'ishlanur muqaddas qo'shiq,

¹ <https://tafakkur.net>

² <https://arboblar.uz>

³ <https://tafakkur.net>

⁴ Manzuma- she'riy asarlar tizimi. Nazm bilan yozilgan asar.

⁵ <https://tafakkur.net>

⁶ Ermatov I., Eshboyeva F., Mamatqulov A. "To'ra Sulaymonning so'z qo'llash mahorati" maqola. <https://doi.org>



Bu – o‘zbek elining o‘z madhiyasi.

She'ning birinchi bandiga nazar tashlar ekanmiz, shoir ilk misrani yurtga salom bilan boshlaydi. Jannatmakon yurtimizni tonglar o'lkasi deya ta'riflaydi. Shu o'rinda shoir "tonglar o'lkasi" birikmasidan iborat o'xshatishni kiritadi. O'xshatish ya'ni tashbeh badiiy adabiyotdagi san'at turi hisoblanadi. Tashbeh – biror obraz yoki voqeani boshqa biror narsa yoki voqeaga qiyoslash orqali o'xshatishdir⁷. "Tonglar o'lkasi" birikmasi orqali shoir vatanni yorug'lik, poklik timsoliga o'xshatmoqda. Bu misrada qo'llangan "ona yurt" birikmasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bu birikma tasviriy ifodani ham ifodalagan. Onalar farzandlariga qay tarzda mehr ko'rsatsa, vatan ham har bir dilbandiga onalar kabi mehr ko'rsatishini shoir birgina "ona yurt" birikmasi orqali ifodalab kelgan. Ikkinchi misrada esa seni ta'riflashga so'z topolmayman, ta'rif-tavsifingning yo'q nihoyasi deydi shoir. Bu so'zlar zamirida ulkan ma'no bor aslida. Shoir aytganidek, jannatmakon yurtimizni oddiygina so'z bilan ta'riflash juda qisqalik qiladi. Bunday osmoni musaffo, serquyosh, qadimiy, boy tarixga ega, mehrlı diyor haqida qancha so'z aytsak, qancha ta'rif-tavsif bersak shuncha kamdir. She'ning uchinchi va to'rtinchi misralariga nazar tashlaydigan bo'lsak bu muqaddas qo'shiq, ya'ni she'r sening tarovatingga bag'ishlanadi deydi va bu she'ni yurtni madh etuvchi madhiya deydi. Shoir she'ni muqaddas sanaydi. Shoir bu bilan Vatanni muqaddas sanaganligi tufayli Vatan madhi aks etgan hamma narsa muqaddasdir demoqchi. Darhaqiqat, "Vatanni sevmok imondandir"⁸.

Ko'hna ona yurtim, Qadim Turonim,

O'z beshik, o'z tilim, shavkatim, shonim.

Yetti iqlim ichra tengi topilmas –

Tuproq, toshi oltin O'zbekistonim

She'ning yuqorida keltirilgan ikkinchi to'rtligida ham shoir yurtimizga ta'rif berishni davom ettiradi. Shoir she'ning birinchi misrasi orqali Vatanimizning buyuk o'tmishga ega ekanligini, qadimiyligini, bebaholigini aks ettirib bergan. Har bir yangi tug'ilgan chaqaloqning orom oladigan joyi bu beshikdir. Shunday ekan, Vatan ham har bir inson uchun orom oladigan bir beshik vazifasini bajara oladi.

Shoir she'rdagi "o'z beshik" birikmasi orqali aynan ana shuni ko'rsatib bermoqda. Har bir millatlar, elatlar va xalqlarning o'z ona tili mavjud. Shunday ekan bizning ham faxrlansa arziydigan, so'zlaganda jaranglaydigan tilimiz bor. Shoir aynan orom oladigan Vatanimiz borligi, so'zlaganda jaranglaydigan tilimiz borligi bizning shon-shuhrat manbayimizdir deb aytmoqchi. Ikkinchi misrada qo'llangan "beshik" so'zi o'xshatish sifatida qo'llanganini

⁷ Sariyev Sh. Adabiyot :Mukammal qo'llanma (eng yangi nashr). – T.: Regbooks, 2020. – 119-b.

⁸ O'zbek xalq maqoli.



ko'rishimiz mumkin. Bu yerda "beshik" so'zi ona Vatan ma'nosini ifodalab kelmoqda. Har bir inson uchun o'z Vatani bebaho boylikdir va bunday bebaho boylikni hech bir qimmatbaho narsaga almashmaydi. Uning tuprog'i ham, toshi ham oltin misoli gavdalanadi. Tuproq va toshning oltinga qiyoslanishi she'rda o'xshatish san'atining qo'llanishidan darak beradi. Shoir tuproq, toshi oltin vatanini yetti iqlim ichida tengi topilmas deya ta'riflaydi. Bu yerda qisman bo'rttirish san'atidan foydalanilgan. Lekin, har kimsa uchun o'z vatani tengi topilmas, bebahodir. Shoir bu to'rtlik orqali aynan ma'na shularni ko'rsatib bermoqchi.

To bashar bor ekan, bor ekan quyosh,
Birlashgan elga yov otolmagay tosh.
Yovquvar yigitlaring, lochin qizlaring
G'animlar oldida egmaganlar bosh.

She'ring uchinchi bandidagi birinchi misrasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, "to bashar bor ekan, bor ekan quyosh" misrasiga ko'zimiz tushadi. Bu misrada hayot, yashash davom etsa xalq bor degan mazmun kelib chiqmoqda. Bu o'rinda qo'llangan quyosh so'zi davomiylik, hayot ma'nolarini ifodalagan o'xshatish sifatida kelmoqda. Keyingi misrada mazmunidan bir yoqadan bosh chiqarilib qilingan har qanday ish besamar bo'lmasligini anglab olishi mumkin. Hattoki, birlashgan elga g'animlar ham bas kelolmaydi. Shuning uchun ham xalqimiz orasida "Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar"⁹ maqoli bejiz paydo bo'lmagan. Aynan shu bandidagi uchinchi va to'rtinchi misralarda hattoki, bu yurtning o'g'il qizlari ham marddir, ular hech qachon yovga bosh egishmaydi deya tasvirlangan. Uchinchi misraga shoir tomonidan o'xshatishlar kiritilgan. Bunda shoir qizlarni lochinga o'xshatyapti. Bilamizki, lochin uchqur, dovyurak qushdir. Shoir ham Vatanimiz qizlarini aynan lochinlardek uchqur demoqchi. Massagetlar malikasi To'marisning hozirgi kungacha tillarda doston bo'lib kelayotgan jasorati buning yorqin misolidir. To'maris o'z vatanini, Turon o'lkasini, Kir II bosqinidan qutqarib qolgan jasoratli ayol timsolidir. Bunday jasorat egalari hech qachon g'animlar oldida bosh egmaganlar.

Dasturxoni ochiq, xirmoni baland,
Samoviy tog'lari nomiga monand.
Olamga mashhur ne zotlar Vatani,
Mehring qon-qardoshlar mehriга payvand.

She'ring keyingi bandidagi birgina "Dasturxoni ochiq, xirmoni baland" so'zlarining o'ziyoq Vatanimizning mehmondo'st va mo'l hosilli, barakali yurt ekanligining isbotidir. Shuningdek, bu to'rtlikda vatanimiz tabiatining ulug'vorligi ham shoir tomonidan go'zal tarzda ko'rsatib berilgan. "Samoviy tog'lar" birikmasi she'rda epitet san'atini yuzaga

⁹ O'zbek xalq maqoli.



keltirgan. Epitet narsa, voqea-hodisa, tushuncha va kishilarning belgi-xislatlarini aniqlovchi, izohlovchi, tavsiflovchi soʻzni qoʻllashdir¹⁰. Togʻlarga nisbatan qoʻllangan samoviy soʻzi ulugʻvorlikni ifodalab kelgan. Taʼkidlash joizki, yurtimizda koʻplab dongʻi yetti iqlimga tarqalgan, buyuk ajdodlarimiz oʻtgan. Ularning yurt ravnaqi, ilm-fan ravnaqi uchun qoʻshgan ulkan xissalari hozirgi kunga qadar tillarda doston boʻlib kelmoqda. Masalan, astranomiya ilmiga ulkan xissasini qoʻshgan, 1018 ta yulduzning joylashish koordinatasini aniqlagan bobokalonimiz Mirzo Ulugʻbekni olaylik. Astranom olimlarimiz Mirzo Ulugʻbek qoldirgan taʼlimotidan hozirgi kunda ham foydalanib kelmoqda. Bundan tashqari yurtimizdan tibbiyotga, matematikaga hissasini qoʻshgan allomalarimiz ham oʻtgan. Toʻra Sulaymon sheʼrdagi “Olamga mashhur ne zotlar Vatani” misrasi orqali ham aynan buyuk allomalarimiz haqida soʻz yuritgan. Yurtimiz, yuqorida taʼriflaganimdek, mehmondoʻst Vatan. Mehmondoʻst yurtimizning oqkoʻngil insonlari oʻz mehrini xoh oʻzbek boʻlsin, xoh boshqa millat vakillari boʻlsin barchaga birdek beradi. “Mehring qon- qardoshlar mehriга payvand” misralari ham yuqoridagi gaplarimizni ifodalamoqda.

Sen – toshqin Jayhunim, teran Sayxunim,

Sen – mening oʻtmishim, sen – yorugʻ kunim.

Yelkadosh oʻlkalar bilan hamnafas,

Shonli Turkistonim – Oʻzbekistonim.

Bu toʻrtlik Vatanimizning tarixini, bugungi yorugʻ kunini badiiy oʻxshatishlar orqali ifodalamoqda. Bu yerda Jayhun daryosi oldidagi “toshqin” soʻzi oʻxshatish boʻlib, kuch va joʻshqinlikni ifodalab kelmoqda. “Teran” soʻzi ham oʻxshatish vazifasini bajarib, yuksak maʼnaviyat va chuqur tarix timsolini ifodalab kelmoqda. Har bir xalqning oʻtmishi uning kelajagining poydevoridir. Misradagi oʻtmish soʻzi tarixga ishora qilayotgan boʻlsa, yorugʻ kun soʻzi esa kelajak maʼnosini ifodalab kelmoqda. Bu oʻxshatishlar orqali shoir Vatan millatning ham oʻtmishi, ham ertasidir demoqchi. Bundan tashqari sheʼrda qoʻllangan “yelkadosh oʻlkalar” birikmasidagi yelkadosh soʻzi tasviriy ifoda boʻlib xizmat qilmoqda, u chegaradosh, qoʻshni davlatlarni va doʻstlik ramzini ifodalamoqda. Hamnafas soʻzi yurtimizning qoʻshni davlatlar bilan birgalikda kelishgan holda yashashini, bir-biriga koʻmak berish orqali rivojlanishini ifodalab, sheʼrning mazmunini yanada boyitib kelmoqda. Bunday tasviriy vositalarning oʻrinli qoʻllanilgani shoirning yuksak mahoratidan dalolat beradi. Turkiston yurtimizning oʻtmishda qoʻllanilgan shakli boʻlib va bu shonli tarixni, yuksak madaniyatni va ajdodlarning boy merosini koʻz oldimizda gavdalandiradi. Oʻzbekiston bugungi kun va kelajakdir. Bu misra orqali shoir tarixni, bugungi kunni va kelajakni bir-biriga uzviy bogʻlagan. Bu toʻrtlik orqali biz ajdodlarimiz qoldirgan boy merosdan poydevor sifatida

¹⁰ Sariyev Sh. Adabiyot: Mukammal qoʻllanma (eng soʻnggi nashr). – T.: Regbooks, 2020. – 112-b.



foydalanib kelajakni barpo etish bilimga chanqoq yoshlar qo‘lida ekanligini tushunishimiz mumkin.

Guling gulzor bo‘lsin, qirlaring o‘rmon,

Daryolaring dengiz, ko‘llaring ummon.

Hududing dahlsiz, yaloving yuksak,

Sen – Sharqning mash‘ali, sen – dorulomon.

Shoir she‘rning oxirgi to‘rtligida Vatanni madh etmaydi. Aksincha, u dilidagi bor samimiy dil izhorlarini shu to‘rtlikka sig‘dirishga urunadi va ona Vatanga bo‘lgan muhabbat va ezgu tilaklar ifodasi yorqin aks etadi. To‘rtlikda shoir Vatanimizning har vaqt go‘zal, musaffo, obod va tinch bo‘lishini tilaydi. Bu to‘rtlikka yaxshilab e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, unda o‘xshatishlar borligini sezishimiz mumkin. Qirlar o‘rmonga, daryolar dengizga va ko‘llar ummonga o‘xshatishi kattalik, ulug‘vorlik va buyuklik ma‘nolarini ifodalagan. Shuningdek, to‘rtlikdagi mash‘al so‘ziga e‘tibor beramiz. Mash‘al so‘zi yorug‘lik ma‘nosini ifodalaydi. She‘rda ham bu so‘z yorug‘lik ma‘nosini ifodalab kelgan. Ya‘ni Vatanimizni Sharq mamalatlari ichida yuksakka ko‘tarib, ma‘rifat va yorug‘lik timsoli sifatida ifodalaydi. She‘r so‘ngidagi birgina dorulomon so‘zining qo‘llanilishida ham chuqur ma‘no mujassamlangan. Bu so‘z orqali shoir yurtimizning tinch, farovon, osoyishta ekanligini ko‘rsatib bermoqda.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, To‘ra Sulaymon bu she‘rida faqatgina so‘z qo‘llash mahoratini emas, balki shoirlik mahoratining ham yuksak cho‘qqisini ifodalab bergan. She‘rda shoir yurtimizning qadim o‘tmishini, bugungi kunini aniq isbot, o‘xshatish va badiiy vositalar orqali ochib bergan. To‘ra Sulaymon ana shunday mahoratli o‘zbek adibidir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. <https://tafakkur.net>
2. <https://arboblar.uz>
3. O‘zbek xalq maqollari.
4. <https://kh-davron.uz>
5. Ermatov I., Eshboyeva F., Mamatqulov A. “ To‘ra Sulaymonning so‘z qo‘llash mahorati” maqola. <https://doi.org>
6. Sariyev Sh. Adabiyot. Mukamal qo‘llanma (eng yangi nashr). – T.: Regbooks, 2020.